

KASBIY RIVOJLANISH DASTURI ASOSIDA INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH MEZONLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish dasturi asosida malakasini oshirish mezonlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda o'qituvchining lingvistik, metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarini baholash mexanizmlari zamonaviy yondashuvlar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, ingliz tili o'qituvchisi, malaka oshirish, kompetensiya, kredit-modul tizimi, refleksiya, innovatsion ta'lim, raqamli pedagogika.

КРИТЕРИИ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ПРОГРАММЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье проведён научно-теоретический и практический анализ критериев повышения квалификации преподавателей английского языка на основе программы профессионального развития. В исследовании обоснованы механизмы оценки лингвистической, методической, цифровой и рефлексивной компетенций преподавателей в контексте современных подходов.

Ключевые слова: профессиональное развитие, преподаватель английского языка, повышение квалификации, компетенция, кредитно-модульная система, рефлексия, инновационное образование, цифровая педагогика.

CRITERIA FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL QUALIFICATION OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS BASED ON THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT PROGRAM

Annotation. This article provides a scientific and practical analysis of the criteria for improving English language teachers' qualifications based on the professional development program. The study substantiates mechanisms for assessing linguistic, methodological, digital, and reflective competencies within the framework of modern educational approaches.

Keywords: professional development, English language teacher, qualification improvement, competence, credit-module system, reflection, innovative education, digital pedagogy.

Kirish. Globallashuv, xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikning jadallashuvi ta'lim tizimi oldiga xorijiy tillarni o'qitish sifatini tubdan oshirish vazifasini qo'ymoqda. Ayniqsa ingliz tili — xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va biznes tili sifatida — zamonaviy pedagogdan doimiy o'sib boruvchi kasbiy salohiyatni talab etadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish (Continuous Professional Development — CPD) tizimi o'qituvchining faoliyati sifatini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Bu tizimda o'qituvchilar o'z kompetensiyalarini muntazam yangilab borish, xalqaro metodikalardan foydalanish va shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish orqali malakasini oshirib boradi[7, 24-31].

O'zbekiston sharoitida ham ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi, davlat ta'lim standartlarida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizom” ushbu jarayon uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi[1, 2-9]. Mazkur Nizom o’qituvchining hayot davomida o’qib-o’rganish, mustaqil rivojlanish va o’z kasbiy faoliyatini baholash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 198-son buyrug’ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o’qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o’rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida 2024-2025-o’quv yilidan boshlab umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Shunday qilib, ingliz tili o’qituvchilarining malakasini oshirish mezonlarini zamonaviy kasbiy rivojlanish dasturi asosida belgilash — xalqaro tajribaga tayangan holda milliy ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning muhim sharti hisoblanadi.

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi masalasi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda keng o’rganilgan bo’lib, u o’qituvchining shaxsiy va kasbiy o’sishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar Day, Fullan, Avalos o’qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’lim sifatining bosh mezonini, ya’ni o’quv jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy ko’rsatkich sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, kasbiy rivojlanish jarayoni — bu o’qituvchining bilim, ko’nikma va qadriyatlarini tizimli ravishda yangilash, o’z faoliyatini refleksiya qilish va o’zgaruvchan ta’lim muhitiga moslashish jarayonidir[2, 10-20; 3, 33-45; 4, 51-59].

Ingliz tili o’qituvchilari uchun kasbiy rivojlanish nazariyasi, asosan, kommunikativ yondashuv kompetensiyaviy yondashuv hamda reflektiv pedagogika tamoyillariga tayanadi. Ushbu yondashuvlarda o’qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki mustaqil o’rganuvchi va o’zining professional o’sishini boshqaruvchi subyekt sifatida qaraladi. Bu esa malaka oshirish dasturlarini faqat qisqa muddatli kurslar sifatida emas, balki uzluksiz, tizimli o’qitish va o’zini rivojlantirish mexanizmi sifatida tashkil etish zarurligini ko’rsatadi.

So’nggi yillarda Yevropa Ittifoqi va AQShda qo’llanilayotgan Continuous Professional Development (CPD) modeli o’qituvchilarning malaka oshirishini kredit-modul tizimi asosida baholashni, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish, mentorlik va portfoliolash jarayonlarini bir butun tizimda qo’llashni nazarda tutadi[7, 24-31]. Bu tizimda malaka oshirish faqat markazlashtirilgan kurslar emas, balki o’qituvchining ilmiy izlanishlari, innovatsion faoliyati va onlayn o’qish faoliyati orqali ham e’tirof etiladi.

O’zbekistonlik olimlar — A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o’rgatish milliy-tadqiqot instituti tadqiqotchilari A. Abduqodirov, M. Jo’rayev, Sh. Qodirova va boshqalar — o’qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda institutsional yondashuv, innovatsion ta’lim muhitini yaratish va raqamli pedagogika omillarining rolini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, zamonaviy ingliz tili o’qituvchisining kasbiy rivojlanishi nafaqat til bilish darajasi, balki axborot texnologiyalaridan foydalanish, madaniyatlararo muloqot, ijodiy yondashuv va reflektiv fikrlash qobiliyatlari bilan belgilanadi[6, 87-93].

Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizom” aynan shu zamonaviy konsepsiyalarga tayanadi. Unda kredit-modul tizimi, elektron platforma, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi va muqobil malaka oshirish shakllari kabi ilg’or tamoyillar belgilab berilgan. Bu tizim o’qituvchining shaxsiy ehtiyojlari va jamiyat talablariga mos holda uzluksiz o’sishini ta’minlashga qaratilgan bo’lib, ingliz tili o’qituvchilari uchun ham zamonaviy, natijaviy yondashuvni talab etadi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, ingliz tili o’qituvchilarining kasbiy rivojlanishida nazariy asos sifatida:

–kompetensiyaviy yondashuv,

- refleksiv va innovatsion pedagogika,
- kredit-modul va raqamli ta'lim tizimi,
- individual rivojlanish trayektoriyasi asosiy metodologik negiz sifatida e'tirof etilmoqda.

Bu esa O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonini xalqaro mezonlarga mos ravishda tashkil etishning nazariy asosini belgilaydi.

O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillarga ko'ra ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi — bu faqat ma'lum davrda o'tkaziladigan malaka oshirish kurslari emas, balki uzluksiz, tizimli va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan jarayondir. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi o'quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki innovatsiyalarni joriy etuvchi, o'z faoliyatini refleksiya qiluvchi va o'z ustida muntazam ishlovchi professional sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish mezonlari sifatida ishlab chiqilgan modelda o'qituvchining lingvistik, metodik, raqamli, madaniyatlararo, innovatsion hamda refleksiv kompetensiyalari uzviy bog'liq holda baholanishi zarurligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aynan ushbu kompetensiyalar majmuasi o'qituvchining kasbiy salohiyatini kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Har bir kompetensiya uchun kredit ballari belgilanishi o'qituvchining o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi va malaka oshirish jarayonini shaffof, natijaviy va individual xarakterga ega qiladi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalarni solishtirish natijasida aniqlanishicha, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini samarali tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- o'qituvchilarning ehtiyojiga asoslangan modulli o'qitish tizimini joriy etish;
- o'z faoliyatini baholash va refleksiya qilishni rag'batlantiruvchi elektron portfoliolar yuritish;
- malaka oshirishning muqobil shakllarini (maqola chop etish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok, innovatsion faoliyat) kredit tizimiga qo'shish;
- o'qituvchilar o'rtasida mentorlik va hamkorlik asosidagi o'qitish amaliyotini rivojlantirish;
- raqamli platformalar orqali onlayn o'qitish va masofaviy baholash mexanizmlarini kengaytirish.

O'zbekiston sharoitida bu yondashuvlarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning ilmiy-metodik salohiyatini kuchaytirish va ingliz tili fanini o'qitishda xalqaro natijadorlik indikatorlariga erishish uchun zarur shart hisoblanadi.

Natijalar tahliliga tayanib aytadigan bo'lsak, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish dasturi quyidagi yo'nalishlarda ijobiy natijalar beradi:

1. Til kompetensiyasi oshadi — o'qituvchilarning CEFR mezonlariga mos bilim va nutq madaniyati shakllanadi.
2. Innovatsion dars metodlari kengayadi — CLIL, TBL, communicative approach kabi yondashuvlar amaliyotga kiradi.
3. Raqamli savodxonlik yuksaladi — o'qituvchilar onlayn ta'lim platformalaridan samarali foydalanadi.
4. Refleksiv va ijodiy tafakkur kuchayadi — o'qituvchilar o'z faoliyatini baholash va yangilash ko'nikmasiga ega bo'ladi.
5. Kasbiy motivatsiya va raqobatbardoshlik oshadi — baholashning shaffofligi o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga undaydi.

Shunday qilib, ingliz tili o'qituvchilarining malakasini oshirish mezonlarini kasbiy rivojlanish dasturi asosida belgilash ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'z samarasini beradi.

Kasbiy rivojlanish dasturi asosida ingliz tili o'qituvchilarining malakasini oshirish mezonlarini belgilash — ta'lim tizimini zamonaviylashtirishning muhim yo'nalishidir. Mazkur tizim o'qituvchini o'z faoliyatining subyekti sifatida rivojlantiradi, ijodiy fikrlash, raqamli savodxonlik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini kuchaytiradi. Natijada ingliz tili ta'limi sifati, o'quvchilarning kommunikativ salohiyati va o'qituvchining professional imiji sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. *Kasbiy rivojlanishning shaxsiylashtirilgan modelini joriy etish* — har bir ingliz tili o'qituvchisi uchun individual rivojlanish trayektoriyasi va o'zlashtirish modullari ishlab chiqilsin.
2. *"Digital Teacher Portfolio" elektron platformasini yaratish* — o'qituvchi o'z faoliyati, sertifikatlari, innovatsion ishlanmalari va xalqaro tajribalarini raqamli tarzda yurita olsun.
3. *"Mentor–Mentee" tizimini kuchaytirish* — tajribali o'qituvchilar yangi pedagoglarga yo'lko'rsatish, metodik yordam berish va hamkorlikda dars tahlillari o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish.
4. *Kredit-modul asosidagi malaka baholash tizimini takomillashtirish* — o'qituvchining kurslar, seminarlar, maqolalar, onlayn treninglar va xalqaro faoliyatda ishtirokini yagona reyting tizimi orqali e'tirof etish.
5. *Innovatsion laboratoriyalar va til maktablari tashkil etish* — ingliz tili o'qituvchilari yangi metodlarni sinovdan o'tkazish, CLIL va TBL yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lsin.
6. *Xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish* — Cambridge, British Council, TESOL kabi tashkilotlar bilan qo'shma CPD loyihalarini amalga oshirish.
7. *Ijodiy va refleksiv yondashuvga asoslangan treninglarni yo'lga qo'yish* — o'qituvchilar o'z tajribasini tahlil qila oladigan, darslarida innovatsion muhit yaratadigan metodik kompetensiyalarni rivojlantirsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom" (25-son qaror, 17-yanvar 2022-yil). – 2–9-betlar.
2. Avalos, B. (2011). Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. *Teaching and Teacher Education*, 27(1), 10–20-betlar.
3. Day, C. (1999). *Developing Teachers: The Challenges of Lifelong Learning*. – London: Falmer Press, 33–45-betlar.
4. Fullan, M. (2007). *The New Meaning of Educational Change*. – New York: Teachers College Press, 51–59-betlar.
5. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. – Harmondsworth: Penguin Books, 269–293-betlar.
6. Jo'rayev, M. (2021). *Pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 87–93-betlar.
7. OECD. (2020). *Teachers' Professional Learning and Growth: International Comparative Study*. – Paris: OECD Publishing, 24–31-betlar.
8. Qodirova, Sh. (2023). Kasbiy rivojlanish jarayonida o'qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning metodik asoslari. – Toshkent: TDPU ilmiy jurnali, 14–20-betlar.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 75–89-betlar.
10. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York: Basic Books, 41–54-betlar.
11. Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1993). *Competence at Work: Models for Superior Performance*. – New York: Wiley, 92–106-betlar.